O‘ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI

Saburova Gulruh Ravshanbekovna
Xorazm viloyati Urganch tumani 2- sonli maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘zbek qissalarining g‘oyaviy badiiy tahlil qilish ilmiy nazariy talqin qilingan.

Tayanch so‘zlar: Obraz va obrazlilik, qahramon, metod, xilma-xillik, zamon va makon, adabiy qahramon, tabiat tasviri, IMAK texnologiyasi, Skarabey texnologiyasi, shakl va mazmun, To‘maris, Doro, massagetlar.

“San`at – mo‘jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san`at vositasidagina kirish mumkin”. San`atning turli ko‘rinishlari voqealikning, undagi hodisa, narsa va holatlarni o‘zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi. Hozirgi paytda turli janrlarda yozilgan asarlarni tor ma`noda “Poetika” deb atashmoqda. Hozirgi kunda “Poetika” so‘zi o‘rniga “adabiyot nazariyasi” termini qo‘llanilmoqda. Mana shu Arastuning asarida adabiyotni turlarga ajratish an`anasi davom etgan holda uch guruhga ajratilgan. Drama, poeziya, epos – bular adabiy turlar hisoblanib, bunday asarlar o‘zlarining nutqiy shakllanishi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Lirik asarlar tizma(she`riy) va sochma(nasriy) nutq shaklida bo‘ladi. Epik asarlar asosan sochma tarzda yoziladi. Epik asarda “o‘tmishda bo‘lib o‘tgan” voqealar qalamga olinadi, zero, zamonda kechib yuz berib bo‘lgan voqealarnigina hikoya qilib berish mumkin bo‘ladi. Epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar aks etadi. Hayotni badiiy qamrash ko‘lami jihatidan epik turni quyidagi tartibda tasniflash mumkin:

1.Kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse; 2.O‘rta epik shakllar: qissa(povest)

3. Katta epik shakllar: epos, epik doston,roman,epopeya

Yuqoridagi tasnifdan kelib chiqib, qissa haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, sujet jihatdan olinsa, roman ko‘p planli murakkab sujetga egaligi, qissa sujeti asosan bosh qahramon tevaragida uyushishi, hikoya syujeti odatda bitta yoki bir-biriga uzviy bog‘liq bir necha voqea asosiga qurilishi kuzatiladi. Qissada u yoki bu shaxsning, uning hayotining ma`lum bir davri ketma-ketlik tarzda bayon qilinadi. Qissaning ham roman kabi bir necha turlari bor. Mana shunday tarixiy qissalardan biri bu Sarigul Bahodirovaning “To‘maris” qissasi boshlang‘ich o‘qish kitobidagi alohida ahamiyatga egadir. Bu qissada jasurlik, vatanparvarlik va insoniylik jihatlari yaqqol namoyon etilgan. Texnalogiyaning maqsadi: o‘quvchilarda ishontirish va boshqara olish malakasini hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, ularni jamoada va turli xil vaziyatlarda o‘zini tuta olishga o‘rgatish. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: o‘quv jarayoni boshlanishida o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari bilan. tanishtiradi. O‘quvchidan biri mashg‘ulot shartlariga binoan xonadan chiqadi. Qolgan ishtirokchilar esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatni nazarda tutuvchi muammoli holatni o‘ylab chiqadilar. Muhokama qiladilar va tayyorlaydilar. Boshqacha aytganda, muammoli holatni rollarga bo‘lingan holda ijro etishga tayyorgarlik ko‘radilar. 5- sinf adabiyot kitobida qissadan berilgan parcha haqida tahlil qiladigan bo‘lsak avvalo, badiiy matn 5 asosiy tamoyildan iborat ekanligini yoddan chiqarmagan holda uni o‘quvchilarga chuqur holatda tahlil qilib berishimiz kerak. Bunda o‘quvchi qissadagi qahramonlarni o‘zi anglab o‘zi tahlil qilib ichiga kirib ketadi. Hattoki o‘zi bilmagan holatda qahramonlarni ijobiy va salbiy qahramonga ajratadi. Bunda o‘quvchi asar mazmunini uning qahramonlarini unutmaydigan holda eslab qoladi. Chunki ularda amaliy ko‘rsatiladi, rollarga bo‘linadi va o‘zi ijro etadi. Eng asosiysi esa asar mazmunini to‘liq tushunadi. Mana shu IMAK texnologiyasi yakunida o‘quvchilar "ishontirish uslublari" mavzusida mustaqil o‘qish uchun tarqatmalar oladilar. Mashg‘ulot yakunlangach, Skarabey texnologiyasidan foydalanib (universal texnologiya) qissa tahlili yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darsliklaridagi kichik epik asarlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar stilizatsiyasi asosida dars jarayonlarini tashkil qilish davr talabidir. Epik asarlarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatida didaktik tarbiya

asosnoma vazifasini o‘tovchi bosh g‘oyadir. Bugungi zamon yoshlarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga zamon talablari asosida ta'lim berish davrimiz o‘qituvchilaridan jiddiy mas'uliyat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshan Ishmuhamedov, Maqsudjon Yuldashev - "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"- o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013

2. Arastu - Poetika (Nafis san'atlar haqida).Toshkent ("Yangi asr avlodi") 2011

3. Mamarasul Jumaboyev. Bolalar adabiyoti (darslik-majmua). Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.